

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARAQQIYOTIDA BUYUK ALLOMALARNING  
IJODIY MEROSI**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*  
*101-guruh talabasi*  
**Ergasheva Malika Shuhrat qizi**

**Annontatsiya** : *Mazkur maqolada buyuk allomalar va ularning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari, maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotida qo'shgan hissasi.*

**Kalit so'zlar** : *buyuk allomalar , ta'lim , tarbiya, kamoloti, pandnoma.*

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi. Bu orzularni amalga oshirish uchun biz bolalarni kichik yoshligidan ta'lim-tarbiya jarayonlariga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Bunda bizga buyuk qomusiy olimlarimiz va ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridan foydalanish katta samara beradi. Jumladan, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'zining “ Baxt-saodatga erishuv to'g'risida “ , “ Fozil odamlar shahri “ , “ Aql ma'nolari haqida “ kabi asarlarida o'zining pedagogik qarashlarini aks ettirgan. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olim. Uning fikricha:

“ Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya-esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlashtiruvchi so'zlar va majbur etish. Har kimki ilm va hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Buyuk Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Kaykovus kabi ajdodlarimizning pandnoma ruhidagi asarlari ham bugungi kun yoshlar tarbiyasida o'z ahamiyatiga egadir. Ana shunday allomalarimiz siymosini va ular yozgan buyuk asarlarni maktabgacha yoshdagi bolalarga turli metod va usullar orqali o'rgatishimiz, ular yozgan asarlarni bolalar yordamida sahnalashtirib buyuk allomalar haqida ko'proq ma'lumot berishimiz bilan bir qatorda ularni ta'limiy, tarbiyaviy, axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashimiz va ularni har tomonlama barkamol shaxs qilib shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o'rinli: “ Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur “ Demak, buyuk ajdodlarimizga xos bo'lgan shijoat, iroda, mardlik, oqillik kabi hislatlarni ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodlarimizda shakllantirish bizning dolzarb vazifamizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik- milliy g'oyamizning poydevoridir. " Tasvir " nashriyot uyi Toshkent-2021.
2. Ma'naviyat yulduzlari ( Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar ) .-T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.1999.